**UO'K 37.013.43:911(075.8)**

# PEDAGOGIK OLIY TA'LIMDA O'LKASHUNOSLIK FANINING O'QITILISHI YUZASIDAN KONTENT-ANALIZ

**M. Mamajonov, B.M. Dehqonov**

*Maqolada zamonaviy oliy pedagogik ta'lim tizimida o'lkashunoslik fanining o'rni, mazmuni va ijtimoiy-madaniy ahamiyati tahlil qilingan. O'lkashunoslik geografik, tarixiy, etnomadaniy va pedagogik bilimlar integratsiyasiga asoslangan ko'p komponentli fan sifatida talaba yoshlarda milliy va madaniy identifikatsiyani shakllantirish vositasi ekani asoslab berilgan. Kontent-tahlil usuli orqali fan mazmunining ijtimoiy-madaniy jarayonlarga ta'siri o'rganilgan. Tahlil natijalari fanning tarbiyaviy salohiyatini oshirish uchun metodik yangilanishlar zarurligini ko'rsatadi.*

**Kalit so'zlar:** *o'lkashunoslik, pedagogik ta'lim, ijtimoiylashuv, milliy identifikatsiya, madaniy qadriyatlar, pedagogik samaradorlik, fan modullari.*

*В статье научно анализируются место, содержание и социально-культурное значение краеведения в системе современного высшего педагогического образования. Краеведение рассматривается как многокомпонентная дисциплина, основанная на интеграции географических, исторических, этнокультурных и педагогических знаний и направленная на формирование национальной и культурной идентичности студентов. На основе контент-анализа учебных программ и методических материалов выявляются достижения и методические ограничения дисциплины.*

**Ключевые слова:** *краеведение, педагогическое образование, социально-культурная социализация, национальная идентичность, педагогическая эффективность, учебные модули, методические технологии.*

## Kirish

O'lkashunoslik fani zamonaviy oliy pedagogik ta'lim tizimida geografik va pedagogik jihatlarni birlashtiruvchi, shaxsning milliy va madaniy identifikatsiyasini shakllantirishda hal qiluvchi o'rin tutuvchi ko'p komponentli fan hisoblanadi. Uning mohiyati talabaning yashash hududi, tarixiy-madaniy merosi, ijtimoiy hayoti va o'z makoniga ongli munosabat shakllanishiga ko'maklashishdan iborat bo'lib, bu jarayon tahliliy tafakkurni shakllantirish, milliy o'zlikni anglash va madaniy xotirani tiklash bilan chambarchas bog'liqdir. "O'lkashunoslik mazmunan geografik, tarixiy, etnomadaniy, sotsiopedagogik, tilshunoslik va antropologik bilimlar uyg'unligi asosida shakllanadi" [1. B. 78].

Mazkur fanning geografik-pedagogik mohiyati shundaki, u ta'lim oluvchini o'z yashash joyi va mintaqasi haqidagi tizimli, integratsiyalashgan bilimlar bilan qurollantiradi. Bu esa talabada ijtimoiy-madaniy mas'uliyatni, madaniy merosga nisbatan hurmatni, tarixiy va fazoviy xotirasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunday yondashuv, ayniqsa, milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayonining geografik asoslarini pedagogik faoliyatga interpretatsiyalashda beqiyos ahamiyatga ega.

O'lkashunoslik fani bugungi kunda O'zbekiston oliy ta'limining bir qancha pedagogik yo'nalishlarida (jumladan, geografiya, tarix, boshlang'ich ta'lim, ona tili va adabiyot, ijtimoiy fanlar yo'nalishlarida) mustaqil yoki modulga kiritilgan fan sifatida o'qitiladi. Fanning tavsifnomasi odatda "*talabada lokal makon haqidagi bilimlarni shakllantirish*", "*hududiy ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish*", "*mahalliy madaniy muhitni anglash*" kabi vazifalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, fan orqali talaba o'z viloyatining, tumani shahar va qishloqlarining tarixiy obidalari, toponimik xususiyatlari, iqtisodiy va ekologik muammolari, madaniy landshaftlari haqida chuqur bilimga ega bo'ladi.

O'quv dasturlarida o'lkashunoslik odatda nazariy, amaliy va tarbiyaviy yo'nalishlarda rejalashtiriladi. Bunda darslik, metodik qo'llanma, amaliy mashg'ulot, ekskursiya, loyiha va mustaqil ishlar orqali o'zining fazoviy-madaniy shaxsi shakllanadi. Lekin ayni paytda bu fanning mazmuni ko'p hollarda faktografik, statistik yoki sirtqi ma'lumotlar bilan cheklanib

qolmoqda. Ularni ijtimoiy-madaniy ijtimoiylashuv vositasiga aylantirish uchun metodik yangilanish va integratsion pedagogik model zarur.

O‘lkashunoslik fani orqali milliy va madaniy ijtimoiylashuvga erishish bir necha bosqichda amalga oshadi. Avvalo, talaba o‘z yashash joyiga nisbatan hissiy-emotsional munosabatni shakllantiradi, bu esa hududiy xotira bilan bog‘liq tanib olishni kuchaytiradi. Keyin fan orqali u mahalliy tarix, madaniy obidalar, urf-odatlar va xalq og‘zaki ijodini o‘rganish bilan madaniy merosni qadrlashni o‘rganadi. Yakuniy natijada esa o‘lkashunoslik shaxsning o‘zligini anglash, ijtimoiy faolligini oshirish, mahalliy madaniyatga ijtimoiy daxldorlik hissini kuchaytirish vositasiga aylanadi [2. B. 22-26]. O‘lkashunoslik pedagogik oliy ta’limda shaxsni makon, tarix va madaniyatga moslashishga yo‘naltiruvchi, tarbiyaviy hamda metodik jihatdan muhim strategik fan sifatida e’tirof etiladi. Uni metodik jihatdan milliy va madaniy ijtimoiylashuvga xizmat qiluvchi kompleks vositaga aylantirish esa dolzarb va istiqbolli yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

## Material va usullar

O‘lkashunoslik fanini metodik jihatdan rivojlantirish va uni milliy-madaniy ijtimoiylashuv jarayonlariga xizmat qiladigan vositaga aylantirish jarayonida ilmiy-metodik yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda keng qo‘llanilayotgan kontent-analiz usuli mazkur fan mazmunini obyektiv va tizimli tahlil etishga, shuningdek, uning tarbiyaviy hamda metodik imkoniyatlarini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

Kontent-analiz zamonaviy ilmiy tadqiqot metodologiyasida pedagogik va madaniy-ma’rifiy jarayonlarning mazmunini obyektiv, tizimli va metodik asosda tahlil qilishda keng qo‘llanilayotgan yondashuvlardan biridir. Ushbu yondashuv o‘lkashunoslik fanini o‘qitishda ayniqsa dolzarb ahamiyatga ega, chunki bu fan o‘z mohiyatiga ko‘ra, nafaqat nazariy bilimlar, balki tarixiy-madaniy, geografik va tarbiyaviy resurslar bilan boyitilgan murakkab mazmunga ega. “Kontent-analiz orqali o‘lkashunoslik fanining real o‘quv mazmuni, uning milliy va madaniy ijtimoiylashuvni ta’minlashdagi salohiyati, didaktik tuzilmasi va metodik yo‘nalishlari tahlil qilinadi” [3. B. 227]

Avvalo, kontent-analizning ilmiy-metodik asoslari aniqlanishi zarur. Ushbu yondashuv asosida matnlar, ya’ni o‘quv hujjatlari, darsliklar, o‘quv dasturlari, metodik qo‘llanmalar strukturaviy va semantik jihatdan tahlil qilinadi. Kontent-analiz ikki asosiy bosqichda olib boriladi: birinchisi – tahlil qilinadigan materiallarning tanlanishi va maqsadli kodlar (kategoriyalar) ishlab chiqilishi, ikkinchisi esa – aniqlangan mazmun birliklarini aniqlash va ularni miqdoriy yoki sifat jihatdan tavsiflash. O‘lkashunoslik fanini o‘rganishda bu metod nafaqat uning qamrov doirasini baholashga, balki uni milliy identifikatsiyani shakllantirishdagi resurs sifatida tahlil qilishga ham imkon beradi [4. B. 33]

## Natijalar va ularning tahlili

Tahlil obyekti sifatida oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilayotgan o‘lkashunoslik fanining o‘quv dasturlari, ishchi rejalari, darslik va metodik qo‘llanmalari olindi. Mazkur manbalar orqali fanning konseptual asoslari, o‘quv maqsadlari, modul bo‘yicha tarkibiy tuzilmasi, mavzular qamrovi, baholash mezonlari va metodik vositalari aniqlandi. O‘quv dasturlari, ayniqsa, talabalarda qanday ko‘nikma va kompetensiyalar shakllantirilishini belgilab beruvchi asosiy hujjat bo‘lib, u orqali o‘lkashunoslik fanining milliy-madaniy mazmuni qay darajada ta’minlanganligi tahlil qilindi. Ishchi rejalarda esa aniq (konkret) dars mavzulari, o‘quv yuklamasi, metodlar va o‘quv faoliyatining shakllari ko‘rsatildi. Darsliklar esa o‘rgatilayotgan kontentning ilmiylik, tarixiylik, ijtimoiy-geografik asoslanganlik darajasini ochib berdi. Metodik qo‘llanmalarda esa ko‘proq mashg‘ulotni tashkil etish usullari, amaliy topshiriqlar, test va interaktiv mashg‘ulotlar berilgan.

Kontent-analizda qo‘llaniladigan mezonlar fan mazmunining madaniy-geografik va metodik imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Xususan:

*Birinchi mezon*ga ko‘ra, tahlil mazmunning madaniy-geografik boyligi nuqtayi nazaridan amalga oshiriladi. Bunda darslik va dasturlarda toponimik birliklar (joy nomlari), tarixiy obidalar, hududiy landshaftlar, mahalliy madaniyat shakllari, qadimiy shaharlar tarixi, rekreatsion resurslarni, ekologik omillar va makoniy xotirani aks ettiruvchi ma’lumotlarning mavjudligi aniqlanadi. Bu turdagi ma’lumotlar o‘lkashunoslik fanining shaxsiy o‘zini anglash jarayoniga xizmat qiluvchi asosiy tarkibiy qismidir.

*Ikkinchi mezon*ga ko‘ra, milliy qadriyatlarga doir tarkibiy birliklarning qamrovi bo‘lib, unda talabalarga xalq og‘zaki ijodi, milliy hunarmandchilik, uy-ro‘zg‘or buyumlari, asbob- anjomlar, mehnat qurollari, tarixiy shaxslar faoliyati, urf-odatlar, milliy kiyimlar, bezaklar, taqinchoqlar, milliy rasm-rusumlar, diniy-madaniy

yodgorliklar haqida bilim beruvchi tarkiblar mavjud yoki mavjud emasligi aniqlanadi. Bu qism orqali o'lkashunoslik fanining ijtimoiy-madaniy ijtimoiylashuvdagi tarbiyaviy funksiyasi tahlil qilinadi. Agar mazkur qadriyatlar dars mazmunida bevosita qo'llanilsa, ularning pedagogik samaradorligi ortadi.

*Uchinchi mezon* metodik innovatsiyalar mavjudligi bo'lib, fan o'qitilishida qanday didaktik vositalar, pedagogik texnologiyalar, amaliy mashg'ulotlar, ekskursiyalar, geoaxborot texnologiyalari, xaritalar, diagrammalar, infografik materiallar va vizual taqdimotlar, o'lka haqidagi ilmiy-ommabop filmlarni ishlatilishini tahlil qilinadi.

Zamonaviy o'lkashunoslik fanida bu komponentlar o'ta muhim, chunki ular talabaning makoniy tasavvurini kengaytiradi, madaniy ongini oshiradi, mustahkamlaydi va interaktiv o'rganishga xizmat qiladi. Ayniqsa, "GIS asosida ishlab chiqilgan xaritalar, interaktiv veb-resurslar, hududiy tadqiqot loyihalari orqali talabaning milliy identifikatsiyasini mustahkamlovchi real amaliyot shakllanadi" [5. B. 101]. Kontent-analiz o'lkashunoslik fanining ilmiy-metodik salohiyatini baholashda ishonchli va chuqur yondashuv hisoblanadi. Bu usul fan mazmunining pedagogik, madaniy va metodik darajasini aniq belgilab berish, mavjud kamchiliklarni ochib tashlash va takomillashtirish yo'llarini aniqlash imkonini beradi. Shu bois "pedagogik ta'limda milliy va madaniy ijtimoiylashuvni ta'minlovchi samarali fan sifatida o'lkashunoslikning tahliliy asoslari aynan kontent-analiz orqali ilmiy asoslanadi" [6. B. 172].

Amaldagi o'quv dasturlar va fanlar modullarining mazmun tuzilishini tahlil qilish, ayniqsa, o'lkashunoslik fanining pedagogik oliy ta'lim tizimidagi roli va samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'lkashunoslik bo'yicha shakllangan bakalavriat darajasidagi fan modullari odatda "Geografik o'lkashunoslik", "Madaniy o'lkashunoslik", "O'zbekiston o'lkashunosligi", "Mahalliy tarix", "Regional landshaftshunoslik", "Sayyohlik va turizm asoslari" kabi nomlar ostida turli pedagogik yo'nalishlar mavjud bo'lib, ularning mazmuni ko'p hollarda hududiy tarix, geografik o'zlikni anglash, milliy madaniy meros va ijtimoiy makon tushunchalarini shakllantirishga yo'naltirilgan [7.B. 15]. Bu modullar talabalarga o'z yashash hududini turli ilmiy yo'nalishlarda chuqurroq anglash, unga nisbatan ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirish, tarixiy-madaniy xotirani saqlash va uni tarbiyaviy vosita sifatida qabul qilish ko'nikmalarini singdirishga xizmat qiladi.

O'quv modullarining kontent tuzilishi tahlil qilinganda, ularda odatda asosiy e'tibor hududiy (regional) komponentlarga qaratilgani ma'lum bo'ladi. Jumladan, modullarda "mahalliy tarixiy jarayonlar, mashhur tarixiy shaxslar faoliyati, qadimiy manbalar, toponimik birliklarning kelib chiqishi, tabiiy resurslar va mintaqaviy farqlanish, madaniy meros obyektlari (masalan, ziyoratgohlar, yodgorliklar, tarixiy maskanlar) keng qamrovda yoritiladi" [8. B. 123]. Bu jihatlar o'quvchilarga o'z hududining tarixiy va madaniy rivojlanishini chuqurroq tushunishga hamda milliy o'zligini mahalliy sharoitda shakllantirishga ko'maklashadi. Xususan, joy nomlari, tabiiy rekreatsion real manzaralar va ekologik hududlarning madaniy tafakkurdagi ahamiyati o'lkashunoslik fanining mazmun boyligini ifodalaydi.

Ko'plab fan modullarida tarixiy-geografik hududlarni o'rganish asosida madaniy o'zlik, makoniy tafakkur va milliy xotirani rivojlantirishga qaratilgan dars mavzulari muhim o'rin tutadi. Bunda dars mavzulari "Mahalliy an'analar va rasm-rusumlar", "Hududiy madaniyat shakllari", "Etno-geografik birliklar", "Qadimiy shaharlardagi ijtimoiy hayot", "O'zbek xalqining tarixiy makonlari", "Ziyorat turizmi va tarixiy fazo" kabi nomlar bilan ifodalangan bo'lib, ularning barchasi makon haqidagi tasavvur, tarixni anglash va madaniy merosni qadrlash kabilarni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu mavzular orqali talaba nafaqat tarixiy-geografik faktlarni o'rganadi, balki ularni ijtimoiy-madaniy kontekstda tahlil qilish, o'z o'tmishiga nisbatan hurmat va daxldorlik hissini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi [9. B. 99].

Ahamiyatli jihati shundaki, o'lkashunoslik fanidagi ko'plab dars modullari turli yo'nalishlarda – geografiya, tarix, filologiya, sotsiologiya va antropologiya bilan bevosita integratsiyada berilgan bo'lib, bu fanlararo yondashuvlar kontentni yanada boyitadi [10. B. 121]. Misol uchun, "Tarixiy geografiya" yoki "O'zbekiston etnomadaniy hududlari" kabi mavzular tarixiy jarayonlarni, makoniy tasavvurlarni va milliy madaniyatni birlashtirib, talabaning keng qamrovli dunyoqarashini shakllantiradi [11. B. 67]. Bu esa o'lkashunoslik fanining faqat ma'lumot beruvchi emas, balki talaba shaxsini tarbiyalovchi, madaniy o'zligini shakllantiruvchi vosita sifatidagi rolini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, mavjud modullarda ayrim kamchiliklar ham uchraydi. Jumladan, mazmunda ayrim hududiy tafovutlar, mintaqaviy o'ziga xosliklar yetarli darajada yoritilmaganlik holatlari kuzatiladi. Dars mavzulari ko'proq statistik yoki ensiklopedik ma'lumotlarga tayangan holatda taqdim etilgan, interaktivlik va amaliyotga asoslangan yondashuvlar kam. Bularning barchasi fan mazmunini yanada takomillashtirish, uni ijtimoiylashuvga xizmat qiluvchi faol pedagogik vositaga aylantirish zarurligini ko'rsatadi. Amaldagi o'quv dasturlari va fan modullarining mazmun tuzilishini tahlil qilish orqali o'lkashunoslik

fanining shaxsiy, madaniy va hududiy o‘zlikni shakllantirishdagi imkoniyatlari aniqlanadi. Bu esa uni pedagogik oliy ta’lim tizimida milliy va madaniy ijtimoiylashuvni metodik ta’minlash vositasi sifatida ilmiy asoslash imkonini beradi.

O‘lkashunoslik fani oliy pedagogik ta’lim tizimida faqat nazariy-geografik bilim beruvchi emas, balki talabalarning shaxsiy va ijtimoiy o‘zligini rivojlantiruvchi muhim tarbiyaviy vosita sifatida ham ahamiyatga ega [12. B. 16]. Uning tarkibida aks etuvchi hududiy tarix, madaniy meros, mahalliy urf-odatlar, milliy qadriyatlar va fazoviy tafakkur elementlari talabalarda o‘z yashash makoni, xalqining o‘tmishi va madaniy xotirasi bilan uyg‘unlikda yashash, o‘zligini anglash va milliy g‘ururni shakllantirishga xizmat qiladi.

Talabalarda madaniy ong va shaxsiy o‘zlikni shakllantirish jarayonida o‘lkashunoslik fani o‘z mazmuni, dars mavzulari va interaktiv uslublari orqali ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, “O‘z hududingni o‘rgan”, “Mintaqaviy qadriyatlar va an’analar”, “Qadimiy shaharlar tarixi”, “Mahalliy qahramonlar va ularning merosi”, “Mening shahrim”, “Mening qishlog‘im”, “Tarixiy fazoda madaniy ong” kabi mavzular orqali talaba o‘z yashash hududi bilan bog‘liq tarixiy-ma’naviy merosni chuqurroq anglaydi, bu esa uning shaxsiy o‘zligini yanada mustahkamlaydi [13. B. 97]. Bunday darslar, ayniqsa, o‘ziga xos madaniy kodlar, tarixiy izlar, mahalliy kontekstlar bilan bog‘langan holda olib borilsa, ta’sirdorlik darajasi yuqori bo‘ladi.

O‘lkashunoslik fanining yana bir muhim tomoni – uning turli fanlar bilan bog‘liq bo‘lishidadir. U geografiya, tarix, madaniyatshunoslik, antropologiya va sotsiologiya bilan yaqin aloqada bo‘lib, bu uning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatini kengaytiradi. Masalan, tarixiy yondashuv orqali mahalliy voqealar xronologik tahlil qilinadi, geografik yondashuv orqali hududning tabiiy holati va joylashuvi o‘rganiladi. Madaniyatshunoslik bilan integratsiyasida urf-odatlar, an’anaviy liboslar, xalq ijodi va san’at asarlari tahlil etiladi, antropologik qarashlar orqali esa etnik birlik, madaniy xilmaxillik va ijtimoiy guruhlarning o‘zaro ta’siri ko‘rib chiqiladi. Bu fanlararo yondashuvlar o‘lkashunoslikni shunchaki bir fan doirasida emas, balki shaxsga kompleks madaniy-tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatuvchi vosita sifatida shakllantiradi.

Fan doirasida milliy qadriyatlar, tarixiy shaxslar va mahalliy urf-odatlarning tahlili pedagogik jarayonning ijtimoiy aspektlarini kuchaytiradi. O‘quvchi yoki talaba o‘z millatini tanib boradi, uni boshqa milliy madaniyatlar bilan qiyoslashga o‘rganadi, qiyosiy tahlil esa madaniy o‘ziga xoslik va farqlilikni anglashni o‘zlashtirishga yordam beradi. O‘lkashunoslikda yoritiladigan qadimiy manbalar, qahramonlik dostonlari, tarixiy yodgorliklar, me’moriy obidalar, xalq marosimlari va diniy-madaniy an’analar esa bu jarayonni yanada jonli, obrazli va didaktik jihatdan ta’sirli qiladi. Ayniqsa, darslarda madaniy landshaftlar, ya’ni tarix va geografiya birlashgan real makonlar (Samarqand, Buxoro, Termiz, Xiva va b.) muhokamasi orqali milliy qadriyatlarga ongli munosabat vujudga keladi. [14. B. 163]. Fan doirasida ishlatiladigan o‘qitish metodikasi ham bu ta’sirdorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Amaliy mashg‘ulotlar, ilmiy-madaniy ekskursiyalar, muzey darslari, mahalliy aholi bilan suhbatlar, toponimik ekspeditsiyalar va GIS texnologiyalar asosidagi fazoviy tahlillar yordamida o‘quvchi o‘rganilgan bilimni real muhitda sinovdan o‘tkazadi, bu esa uning madaniy identifikatsiyasini bevosita hayotiy kontekstda shakllantiradi [15. B. 57].

O‘lkashunoslik fani pedagogik oliy ta’limda talabalarning shaxsiy va madaniy rivojlanishiga xizmat qiluvchi, ko‘p qatlamli va integrativ tarbiyaviy imkoniyatlarga ega bo‘lgan muhim yo‘nalish hisoblanadi. Uning doirasida berilayotgan bilimlar nafaqat nazariy, balki qadriyatga asoslangan amaliy ijtimoiylashuvni ham rag‘batlantiradi.

O‘lkashunoslik fanining oliy pedagogik ta’limdagi mazmunini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, u madaniy ijtimoiylashuvga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vosita bo‘lishiga qaramay, amaldagi o‘quv materiallari va metodik yondashuvlarda ayrim kamchiliklar mavjud. Bunday metodik va amaliy cheklovlar fan samaradorligini pasaytirib, milliy o‘zlik va madaniy ongni shakllantirish jarayoniga to‘sqinlik qiladi.

Avvalo, mazmun jihatidan umumlashtirilganlik holati kuzatiladi.

*Birinchidan*, aksariyat o‘quv dasturlari va darsliklar butun respublika miqyosidagi standart yoki umumiy tarixiy-madaniy ma’lumotlarga tayanadi, bu esa o‘quvchilarning yashash hududi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan lokal madaniyatlar, mintaqaviy tafovutlar, o‘ziga xos tarixiy xotira shakllari, etnik-madaniy guruhlar xususiyatlarini yetarli darajada qamrab olmasligiga olib keladi. Masalan, Qoraqalpog‘iston respublikasi, Farg‘ona vodiysi, Surxondaryo yoki Chirchiq-Ohangaron vodiysi kabi hududlarning o‘ziga xos madaniy an’analari, joy nomlarining kelib chiqishi, mahalliy qahramonlar va tarixiy obidalar fan mavzularida yetarlicha yoritilmagan. Bu esa talabaning mahalliy o‘zligini chuqurroq anglash imkoniyatini cheklaydi.

*Ikkinchidan*, o‘lkashunoslik darslarida amaliy mashg‘ulotlar va interaktiv yondashuvlar bilan boyitilmaganlik holati ham mavjud. Odatda fan nazariy bayonlarga asoslangan bo‘lib, ensiklopedik yoki faktologik mazmun ustuvorlik qiladi. Talabaning mustaqil izlanish, joylarda kuzatish, loyihalash yoki tayyor qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi

real va virtual ekskursiyalar, loyiha ishlari, kartografik tadqiqotlar o‘quv jarayoniga yetarli darajada integratsiyalashmagan. Masalan, madaniy landshaftlarni joyiga chiqib o‘rganish, ziyoratgohlar xaritasini tuzish, mahalliy aholi bilan madaniy intervyu olib borish kabi metodlar fan tarkibida nazarda tutilmagan yoki formal shaklda mavjud [16. B. 71]. Bu holat o‘lkashunoslikni faol o‘quv fanidan passiv bilim beruvchi vositaga aylantirib qo‘yadi.

*Uchinchidan*, fan mazmunidagi vizual va raqamli materiallardan foydalanish darajasi past ekani aniqlanadi. Ko‘pgina darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarida xaritalar, infografik materiallar, statistik diagrammalar, fotosuratlar, videoroliklar yoki 3D modellar deyarli mavjud emas. Ayniqsa, o‘quvchilarning vizual idrokini kuchaytiruvchi va makoniy tasavvurini rivojlantiruvchi multimedia vositalari – tarixiy shaharlarning virtual maketi, madaniy meros obyektlarining 3D tavsifi, hududiy arxitektura uslublarining grafik tahlili – hali ham keng joriy etilmagan. Natijada talabalarda madaniy merosga nisbatan emotsional-madaniy bog‘lanish hosil bo‘lishi, madaniy fazoni tasavvur qilish ko‘nikmasi, xotira makonlari bilan ruhiy aloqa o‘rnatish imkoniyatlari cheklanadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan metodik yetishmovchiliklar va amaliy cheklovlar o‘lkashunoslik fanining ta’limiy-tarbiyaviy samaradorligini pasaytiradi. Bu esa talabalarni madaniy o‘zlikni anglashdan, regional xotirani shakllantirishdan va milliy qadriyatlarga emotsional yaqinlashishdan mahrum qiladi. Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish uchun fan mazmunini zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish, regional diversifikatsiyalarga asoslangan metodik yondashuvlarni tatbiq etish, interaktiv uslublarni keng joriy etish va raqamli materiallar bilan didaktik modullarni to‘ldirish dolzarb hisoblanadi. Bu orqali o‘lkashunoslik fani madaniy ijtimoiylashuvni ta’minlovchi samarali pedagogik vosita sifatida to‘liq ishga solinadi.

## Xulosalar

O‘lkashunoslik fanining pedagogik oliy ta’limdagi o‘rni va imkoniyatlarini mazmuniy tahlil qilish orqali aniqlangan metodik kamchiliklar asosida talabada madaniy o‘zlik va ijtimoiylashuvni rivojlantirishga xizmat qiladigan aniq pedagogik-metodik tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bunday tavsiyalar, bir tomondan, o‘lkashunoslikni faqat bilim beruvchi emas, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi integrativ fan sifatida takomillashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, uni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, madaniy-geografik tafakkur va identifikatsiya kompetensiyalari bilan boyitadi.

Bu borada quyidagi tavsiyaviy xarakterdagi fikrlarni ilgari surish mumkin:

*Birinchidan,* o‘lkashunoslik fanining mazmuniga madaniy-geografik anglashni kuchaytiruvchi yangi modullarni kiritish taklif etiladi. Bu modullar talabaning o‘z hududiy-madaniy manbalariga asoslangan o‘zligini anglashini ta’minlashi lozim. Masalan, “Makon madaniyati va joy nomlari merosi”, “Hududiy o‘zlik va madaniy tafakkur”, “Ziyoratgohlar va tarixiy makon”, “Mahalliy madaniyat va xalq bilimlari” kabi yangi mavzular asosida dars modullari ishlab chiqilishi talab qilinadi. Ushbu modullar orqali talabalar nafaqat nazariy bilim oladi, balki o‘z yashash joyining tarixiy, madaniy va makoniy jihatlarini zamonaviy metodlar orqali o‘rganishga jalb qilinadi.

*Ikkinchidan,* mahalliy madaniy meros obyektlari (tarixiy yodgorliklar, qadimiy toponimlar, etnografik obidalar, arxitektura namunalar va h.) asosida dars ssenariylari, interaktiv topshiriqlarni joriy etish zarur. Misol uchun, darslarda talabalar o‘z hududidagi tarixiy obidalarni xaritada aniqlab, ularning madaniy funksiyasini o‘rganadi, virtual rekonstruksiyasi bilan ishlaydi yoki ushbu obidalar bilan bog‘liq xalq og‘zaki ijodi namunalarini tahlil qiladi. Geografik axborot texnologiyalari asosida tarixiy-madaniy landshaftlarni masofaviy tahlil qilish, tarixiy hududlarning transformatsiyasini vizual vositalar bilan ifodalash, madaniy meros obyektlarini raqamli xaritada qatlam sifatida joylashtirish kabilar fan mazmunini zamonaviylashtirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuvlar talabaning vizual tafakkurini rivojlantirib, ularni real makonda faol o‘quvchi sifatida shakllantiradi.

*Uchinchidan,* pedagogik amaliyotda o‘lkashunoslik materiallari orqali talabani ijtimoiylashuvga yo‘naltiruvchi metodik yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Bunda o‘lkashunoslik materiallari, ya’ni tarixiy fotosuratlar, raqamli xaritalar, mahalliy urf-odatlar haqidagi hikoyalar, dostonlar, tarixiy hujjatlardan foydalanib tayyorlangan videoroliklar dars jarayoniga nafaqat axborot manbai sifatida, balki tarbiyaviy vosita sifatida kiritilishi kerak [17. B. 14]. Metodik yondashuvlar sifatida esa “Madaniy makonda shaxs” mavzusida loyiha ishlari, “Mening shahrim – mening iftixorim” mavzusidagi debat darslari, “O‘z hududingni angla” tadqiqot modullari kabilar tatbiq etilishi mumkin. Bu darslar orqali talaba nafaqat hududni o‘rganadi, balki unda o‘z o‘rnini, ijtimoiy mas’uliyatini, tarixiy-madaniy kontekstdagi identifikatsiyasini ham anglab boradi.

O‘lkashunoslik fanini madaniy ijtimoiylashuvga xizmat qiluvchi pedagogik vosita sifatida takomillashtirish uchun taklif etilgan tavsiyalar mazmun, metodi-

ka va texnologiyalar integratsiyasini nazarda tutadi. Bu yondashuvlar orqali fanning amaliy jihatdan samaradorligi ortadi, talaba esa faqat geografik hududni emas, balki o‘z milliy va madaniy muhitini anglagan, ongli, ijtimoiy javobgar shaxs sifatida shakllanadi. Shu asosda o‘lkashunoslik fani oliy pedagogik ta’lim tizimida milliy va madaniy ijtimoiylashuvni metodik ta’minlashning strategik omiliga aylanishi mumkin.

## Adabiyotlar:


1. *Бахчиева О.А.* Педагогический потенциал краеведения в процессе формирования духовно-нравственных ценностей будущего специалиста // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 1. – С. 78–92.

2. *Rahmonov B.* O‘lkashunoslik fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish // Ta’lim va innovatsiya. – 2020. – № 1. – B. 22–26.

3. *Siddiqov D*. Bo‘lajak pedagoglarning o‘lkashunoslik muzeylari vositasida estetik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari // O‘zMU xabarlari (UzMU Scientific Bulletin). – 2025. T. 1. – № 1/2. – B. 227–229.

4. *Yo‘ldosheva Sh*. Mahalliy madaniy qadriyatlar orqali talabalar identifikatsiyasini shakllantirish // NamDU Ilmiy axborotnomasi. – 2019. – № 5. – B. 33–37.

5. *Oripov A*. Talabalarning hududiy identifikatsiyasini shakllantirish omillari // Ijtimoiy fanlar. – 2021. – № 1. – B. 101–105.

6. *Sabirov Q.B*. Geografiya o‘qituvchilarining innovatsion kompetentligini GIS texnologiyalari asosida rivojlantirish metodikasi: Ped. fan. b. fals. dokt. (PhD)… diss. – Toshkent, 2024. – 172 b.

7. *Karimova N*. O‘lkashunoslik va fazoviy tafakkur: ta’limda shakllantirish masalalari // Geografiya va zamonaviy ta’lim. – 2023. – № 2. – B. 15–20.

8. *Saidova G*. Talabalarda madaniy xotirani shakllantirishda mahalliy meros materiallarining ahamiyati // O‘zMU ilmiy axborotlari (Vestnik NUUz). – 2021. –№ 3. – B. 123–128.

9. *Mohan A., Valker C.* Community mapping and cultural memory: engaging studens vith local heritage // Journal of Geography. – 2020. – Vol. 119. – No 3. – Pp. 99–108.

10. *Самохин Ю.С., Чистякова О.Б*. Педагогика краеведения как основа обучения и воспитания в современной школе // Вестник Академии детско-юношеского туризма и краеведения. – 2020. – № 1. – С. 121–127.

11. *Abduraimov K.* Mahalliy madaniyat unsurlarini geografiya darslariga integratsiyalash // Xalq ta’limi. – 2022. – № 6. – B. 67–72.

12. *Karimova N*. O‘lkashunoslik va fazoviy tafakkur: ta’limda shakllantirish masalalari // Geografiya va zamonaviy ta’lim. – 2023. – № 2. – B. 15–20.

13. *Винокурова Н.Ф., Зулхарнаева А.В.* Методика реализации компетентностного подхода при изучении экологического краеведения // Современные проблемы науки и образования. – 2018. – № 3. – С. 97-104.

14. *Valiyeva Sh.I*. Samarqand viloyati toponimiyasining tabiiy-geografik xususiyatlari: Geografiya fan. b. fals. dokt. (PhD) …diss. – Samarqand, 2023. – 163 b.

15. *Mamajonov I.* GIS texnologiyalari yordamida geografik identifikatsiyani rivojlantirish // Jismoniy geografiya va ta’lim. – 2022. –№ 4. – B. 55–60.

16. *Demirci A., Karaburun A.* Teachers’ attitudes tovard geographic information systems (GIS) in geography education // Surveying and Land Information Science. – 2015. – Vol. 74. – No 2. – Pp. 71–80.

17. *Nishonova M*. Mahalliy tarix materiallari orqali talabalarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish // Milliy tarbiya. – 2019. – № 2. – B. 14–18.

# LOCAL STUDIES IN HIGHER PEDAGOGICAL EDUCATION: A CONTENT ANALYSIS

**Mo‘minjon Mamajonov[1], Begali M. Dehqonov[1]**

*Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Pedagogical Research.* 2025. 6(90). 14-21.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

**Key words:** local studies, content analysis, higher education, socialization, pedagogical effectiveness.

This study examines the role and educational potential of Local Studies in higher pedagogical education. The discipline is considered as an integrative field combining geographical, historical, ethno-cultural, and pedagogical knowledge that contributes to students’ national and cultural identity formation. Using content analysis, the research evaluates curricula, textbooks, and methodological materials to assess their contribution to socio-cultural socialization. The findings indicate adequate coverage of regional history and cultural heritage, while revealing insufficient application of practical activities, interactive methods, and digital technologies. The study emphasizes the need for methodological modernization to enhance the pedagogical effectiveness of Local Studies.

*Introduction.* Local Studies plays an important role in higher pedagogical education by fostering students’ understanding of regional history, cultural heritage, and spatial identity. As an interdisciplinary discipline, it supports the formation of national consciousness and socio-cultural values. However, the effectiveness of Local Studies largely depends on the structure and methodology of its content, which requires systematic evaluation.

*Materials and Methods*. The study applies content analysis to examine curricula, syllabi, textbooks, and methodological manuals used in higher pedagogical institutions. Educational materials were analyzed according to thematic categories, including cultural-geographical content, national values, and teaching methods. This approach enabled an objective assessment of the discipline’s educational and methodological quality.

*Results and Discussion*. The analysis shows that Local Studies courses sufficiently cover regional history, cultural heritage, and spatial thinking. These components support students’ cultural awareness and regional identity. At the same time, limited use of practical training, interactive teaching strategies, fieldwork, and digital technologies was identified. Such methodological gaps reduce student engagement and restrict the formative potential of the discipline. The findings suggest that greater emphasis on practice-oriented and technology-enhanced learning is required.

*Conclusion*. Local Studies possesses significant potential for promoting socio-cultural socialization and national identity formation in higher pedagogical education. However, its effectiveness is constrained by methodological limitations. Modernizing course content through regional diversification, interactive methods, and digital tools is essential to enhance its educational impact.

## References:

1. Bahchieva, O.A. (2015) Pedagogicheskij potencial kraevedeniya v processe formirovaniya duhovno-nravstvennyh cennostej budushchego specialista [The Pedagogical Potential of Local Studies in the Process of Forming the Spiritual and Moral Values of Future Specialists]. *Sovremennye problemy nauki i obrazovaniya*. No 1. Pp. 78-92.

2. Rahmonov, B. (2020) O‘lkashunoslik fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish [Using Innovative Technologies in Teaching the Subject of Local Studies]. *Ta’lim va innovatsiya*. No 1. Pp. 22-26.

3. Siddiqov, D. (2025) Bo‘lajak pedagoglarning o‘lkashunoslik muzeylari vositasida estetik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari [Pedagogical and Psychological Foundations for Developing Future Teachers’ Aesthetic Culture through Local Studies Museums]. *O‘zMU xabarlari*. Vol. 1. No 1/2. Pp. 227-229.

4. Yo'ldosheva, Sh. (2019) Mahalliy madaniy qadriyatlar orqali talabalar identifikatsiyasini shakllantirish [Shaping Students' Identity through Local Cultural Values]. *Scientific Bulletin of NamSU*. No 5. Pp. 33-37.

5. Oripov, A. (2021) Talabalarning hududiy identifikatsiyasini shakllantirish omillari [Factors Influencing the Formation of Students' Regional Identity]. *Ijtimoiy fanlar*. No 1. Pp. 101-105.

6. Sabirov, Q.B. (2024) Geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini GIS texnologiyalari asosida rivojlantirish metodikasi [Methodology for Developing Geography Teachers' Innovative Competence Based on GIS Technologies]. Dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences. Tashkent.

7. Karimova, N. (2023) O'lkashunoslik va fazoviy tafakkur: ta'limda shakllantirish masalalari [Local Studies and Spatial Thinking: Issues of Development in Education]. *Geografiya va zamonaviy ta'lim*. No 2. Pp. 15-20.

8. Saidova, G. (2021) Talabalarda madaniy xotirani shakllantirishda mahalliy meros materiallarining ahamiyati [The Importance of Local Heritage Materials in Shaping Students' Cultural Memory]. *O'zMU ilmiy axborotlari*. No 3. Pp. 123-128.

9. Mohan, A., Valker, C. (2020) Community mapping and cultural memory: engaging studens vith local heritage. *Journal of Geography.* Vol. 119. No 3. Pp. 99-108.

10. Samohin, Yu.S., Chistyakova, O.B. (2020) Pedagogika kraevedeniya kak osnova obucheniya i vospitaniya v sovremennoj shkole [Pedagogy of Local Studies as a Basis for Teaching and Education in the Modern School]. *Vestnik Akademii detsko-yunosheskogo turizma i kraevedeniya.* No 1. Pp. 121-127.

11. Abduraimov, K. (2022) Mahalliy madaniyat unsurlarini geografiya darslariga integratsiyalash [Integrating Elements of Local Culture into Geography Lessons]. *Xalq ta'limi*. No 6. Pp. 67-72.

12. Karimova, N. (2023) O'lkashunoslik va fazoviy tafakkur: ta'limda shakllantirish masalalari [Local Studies and Spatial Thinking: Issues of Formation in Education]. *Geografiya va zamonaviy ta'lim*. No 2. Pp. 15-20.

13. Vinokurova, N.F., Zulharnaeva, A.V. (2018) Metodika realizacii kompetentnostnogo podhoda pri izuchenii ekologicheskogo kraevedeniya [Methodology for Implementing the Competency-Based Approach in the Study of Environmental Local Studies]. *Sovremennye problemy nauki i obrazovaniya*. No 3. Pp. 97-104

14. Valiyeva, Sh.I. (2023) Samarqand viloyati toponimiyasining tabiiy-geografik xususiyatlari [Natural and Geographical Features of the Toponymy of Samarkand Region]. Dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences.

15. Mamajonov, I. (2022) GIS texnologiyalari yordamida geografik identifikatsiyani rivojlantirish [Developing Geographical Identity through GIS Technologies]. *Jismoniy geografiya va ta'lim.* No 4. Pp. 55-60.

16. Demirci, A., Karaburun, A. (2015) Teachers' Attitudes toward Geographic Information Systems (GIS) in Geography Education [Teachers' Attitudes toward Geographic Information Systems (GIS) in Geography Education]. *Surveying and Land Information Science*. Vol. 74. No 2. Pp. 71-80.

17. Nishonova, M. (2019) Mahalliy tarix materiallari orqali talabalarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish [Developing a Sense of National Pride in Students through Local History Materials]. *Milliy tarbiya*. No 2. Pp. 14-18.

*Mualliflar haqida ma'lumot:*

**MAMAJONOV Mo'minjon** – geografiya fanlari nomzodi, Andijon davlat universiteti Geografiya va geoaxborot tizimlari kafedrasi professori. E-mail: mamajanovmuminjon1952@gmail.com

**DEHQONOV Begali Muhammedovich** – Andijon davlat universiteti Geografiya va geoaxborot tizimlari kafedrasi katta o'qituvchisi. E-mail: bmd79@inbox.ru